

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

**O‘ZBEK TILIDA XOREOGRAFIK
TERMINLARNING
SHAKLLANISHI:
BUGUNGI HOLATI VA
TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

TOSHKENT – 2021

UDK: 452.21.632

KBK: 42.2(Ў36)

Ushbu to'plamda madaniyat, san'at va musiqa yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan turli ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, pedagoglari, ilmiy izlanuvchilari va magistrantlarining ilmiy maqolalari o'rin olgan.

Mas'ul muharrir:

- Jomonov R.O.** - O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi

Muharrirlar:

- Xudoynazarova Sh.T.** - O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish" bo'limi boshlig'i
- Tashkenboyev P.E.** - O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasini mudiri, san'atshunoslik nomzodi

Taqrizchilar:

- Ismoilov H.** - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Jahon tillari va adabiyoti" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- Zokirova S.M.** - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna harakati va jismoniy tarbiya" kafedrasini katta o'qituvchisi

Mazkur to'plam O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Ilmiy kengashining 2021-yil 1-maydagi yig'ilishida ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan (9-sonli bayonnoma).

ISBN: 978-9943-7089-4-5

© «Fan ziyosi» nashriyoti 2021

© O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

albatta, o‘ziga xos qonun-qoidalar sababli paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida paydo bo‘ladi, rivojlanadi hamda uning boyishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. T., 2017. 62-b.
2. Jo‘rayeva M.M., Hojiyeva G.S. O‘zbekcha-fransuzcha fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at (dictionnaire ouzbek-français français-ouzbek), Musiqa va san’at sohasiga oid ikki tilli lug‘at (o‘quv-metodik qo‘llanma). Buxoro, 2019. -184 b.
3. Saitova E.Yo., Abraykulova N.E. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. T., 2015. – B. 17-18.
4. Tafakkur gulshani. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. 159-b.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom>

SAN’AT VA MUSIQA TERMINLARI TARJIMASIDA MILLIY O‘ZIGA XOSLIK VA LINGVISTIK TAHLIL (o‘zbek va fransuz tili materiallari misolida)

Gulchehra Hojiyeva
BuxDU o‘qituvchisi
Nosirova Shahlo
BuxDU talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada terminologiyaning soha sifatida fanga kirib kelishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, bu borada xorij va o‘zbek olimlari tomonidan yaratilgan tadqiqotlar hamda terminologiya sohasidagi izlanishlar, qolaversa, fransuz va o‘zbek tillarida san’atga doir terminlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Калит сўзлар: terminologiya, termin, san’at terminlari, kuy, ohang, ashula, nota, raqs, raqqosa, devon.

Аннотация

В данной статье рассматривается проникновение терминологии в науку как область. В нем также обсуждаются исследования зарубежных и узбекских ученых и исследования в области терминологии, а также лингвокультурные особенности художественных терминов на французском и узбекском языках.

Ключевые слова: терминология, термин, художественные термины, музыка, нота, танец, танцовщица, диван.

Annotation

This article discusses the penetration of terminology into science as a field. It also discusses research by foreign and Uzbek scholars and research in the field of terminology, as well as the linguocultural features of art terms in French and Uzbek.

Key words: terminology, term, art terms, music, tone, song, note, dance, dancer, devon.

Til – inson ma'naviy olamida uning o'zligini anglash yo'lidagi eng buyuk kashfiyotidir. Zero inson davrlar mobaynida tilni tadqiq qilar ekan, uning turli va yangi qirralarini kashf etib boradi.

Shu tariqa "tilshunoslik" deb ataluvchi lisoniy birlik va uning o'ziga xos xususiyatlaridan tashkil topgan ulkan "piramida" bunyodga kelgan va hali-hamon uning qirralari kengayib bormoqda desak, adashmaymiz.

Tilshunoslik soha sifatida tadqiq etilar ekan, terminologiya uning muhim bo'g'ini sifatida ajralmas qismiga aylandi. "Terminologiya" terminiga fanda turlicha ta'riflar mavjud:

Terminologiya (lotincha *terminus* – chegara + yunoncha *logos* – fan, ta'limot) bir necha ma'nolarini o'zida aks ettiradi.

Fan, texnika, kasb-hunarning bir sohasida qo'llaniladigan terminlar majmui. Masalan, o'zbek tili terminologiyasi.

Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Masalan, terminologiya bo'limi, terminologiya mutaxassisi [2, 74].

Terminologiya – muayyan bir sohaga oid terminlar majmui va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi sohasi. Masalan, grammatika terminologiyasi, terminologiya masalalari [6, 564].

Terminologiya – har bir muallifning o‘zi yaratadigan o‘ziga xos til. [7, 350].

Ta’kidlash joiz, har bir xalqning o‘z tabiati, turmush sharoiti, urf-odati, madaniyati va san’atida o‘ziga xosliklar mavjud. Shu bois har bir xalqning orzu-niyatlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, lekin o‘z milliylik xususiyatlariga ham egadir.

Tadqiqot davomida o‘zbek va fransuz tillaridagi musiqa hamda san’atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish barobarida bir necha o‘ziga xosliklar aniqlandi.

Ma’lumki, tilshunoslikda so‘zlar tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi: sodda va qo‘shma. Sodda so‘zlar birgina lug‘aviy ma’noli qismga egaligiga ko‘ra shunday („sodda“) deb ataladi [5, 9]. Sodda so‘zlarga bir o‘zakdan iborat so‘zlar, qo‘shma so‘zga esa ikki va undan ortiq so‘z — o‘zakdan tashkil topgan so‘z birliklari tegishlidir. San’at terminlarining shakl xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ularni so‘z va birikma shaklidagi atamalar ko‘rinishida ham tahlil etildi.

1. So‘z shaklidagi san’at atamalari:
2. Sodda so‘z shaklidagi atamalar;
3. Qo‘shma so‘z shaklidagi atamalar.

Sodda so‘zlar ham o‘z navbatida 2 turga: tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lmagan tub sodda va so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yasalgan yasama sodda singari birliklarga ajratiladi. Tub sodda so‘zlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1-jadval

<i>No</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>
1.	<i>akkord mus</i>	<i>accord m</i>
2.	<i>akkordeon</i>	<i>accordéon m</i>
3.	<i>aksent</i>	<i>accent m</i>
4.	<i>akustik</i>	<i>acoustique</i>
5.	<i>ashula</i>	<i>mélodie f mus</i> <i>chant m</i>
6.	<i>an’ana</i>	<i>tradition f</i>

7.	<i>ansambl</i>	1) <i>ensemble m</i> 2) <i>groupe m.</i>
8.	<i>baho</i>	<i>note f</i>
9.	<i>devon</i>	1) <i>divan m</i> 2) <i>ensemble des œuvres d'un poète ou d'un compositeur</i>
10.	<i>janr</i>	<i>genre m</i>
11.	<i>klavish</i>	<i>note m</i>
12.	<i>kuy</i>	<i>air m</i>
13.	<i>mashq</i>	<i>exercice m</i>
14.	<i>nota</i>	<i>note m</i>
15.	<i>ohang</i>	<i>note m</i> <i>melodie f mus</i>
16.	<i>raqs</i>	<i>danse f</i>
17.	<i>chorak mus (nota belgisi)</i>	<i>noire f</i>
18.	<i>qo'shiq</i>	<i>chant m</i>
19.	<i>o'lan</i>	<i>chant m</i>
20.	<i>hofiz</i>	<i>aède m</i>

1-jadvaldagi misolda o'zbek tilidagi san'at terminlari ham, ularning fransuz tilidagi muqobil variantlari ham tub sodda so'zlar orqali ifodalangan. Tahlilga olingan fransuz tilidagi "note" hamda "chant" terminlari omonimlik kasb etib, "note" atamasi baho, klavish, noma va ohang terminlariga ekvivalent sifatida kuzatilsa, "chant" birilgi ashula, qo'shiq va o'lan terminlariga muqobil bo'lib kelmoqda. Bundan o'zbek tilining so'z boyligi va terminlarning xilma-xilligini ko'rish mumkin. Shuningdek, tadqiqot terminlaridan "devon" (forscha "she'rlar to'plami") muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining (dostonlardan tashqari) to'liq to'plami [1, 587] hisoblanib, shu jihatdan, mazkur tarjimada tub sodda so'z bilan

birga, “biror shoir yoki bastakorning asarlari to‘plami” deya uni izohlab keluvchi ta’rifdan ham foydalanilgan.

Har qanday yasama so‘z ikki qismdan – so‘z yasaliş asosi va so‘z yasovchi qismdan iborat bo‘lib, [3, 29-33] bu kabi maxsus birliklar yordamida yasalgan so‘zlarning ma’nosi uning qismlari ma’nosidan yuzaga keladi, ya’ni, uning ma’nosini qismlari ma’nosi bilan asoslash mumkin bo‘ladi: dutorchi — dutor chaluvchi (sozanda) [4, 10] Shunga ko‘ra o‘zbek va fransuz tilidagi yasama sodda so‘zlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

2-jadval

<i>Nö</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>yasaliş yo‘li</i>
1.	<i>an’anaviy</i>	<i>traditionnel</i>	<i>an’ana+viy</i> <i>tradition+nel</i>
2.	<i>ardoqli</i>	1) <i>respectable</i> 2) <i>estimable</i>	<i>ardoq+li</i> <i>respect+able</i> <i>estim+able</i>
3.	<i>bezavol</i>	1) <i>immortel</i> 2) <i>invulnérable</i>	<i>be+zavol</i> <i>im+mortel</i> <i>in+vulnérable</i>
4.	<i>dongdor</i>	<i>renommé</i>	<i>dong+dor</i> <i>re+nommé</i>
5.	<i>dramatik</i>	<i>dramatique</i>	<i>drama+tik</i> <i>drame+tique</i>
6.	<i>dutorchi</i>	<i>doutariste m</i>	<i>dutor+chi</i> <i>doutar+iste</i>
7.	<i>garmonchi</i>	<i>accordéoniste m f</i>	<i>garmon+chi</i> <i>accordéon+iste</i>
8.	<i>nafislik</i>	<i>finesse f</i>	<i>nafis+lik</i> <i>fin+esse</i>
9.	<i>raqqos, raqqosa</i>	<i>danseur m, daneuse f</i>	<i>raqs raqqos+a</i> <i>danse +eur, euse</i>

2-jadvalda berilgan misollarda o‘zbek tilidagi san’at terminlari ham, ularning fransuz tilidagi ekvivalentlari ham yasama sodda so‘zlar orqali,

ya'ni "asos+yasovchi qo'shimcha" yoki "yasovchi qo'shimcha+asos" shaklida ifodalangan. Fransuz tilidagi "dramatique" termini yasalishi jarayonida o'zardagi "ye" harfi "a"ga aylanganini ko'rish mumkin, "im+mortel", "in+vulnérable" so'zlarida "im-" va "in-" prefiksi yordamida berilmoqda, shuningdek, "respect+able" va "estim+able" so'zlari "-able" suffiksi orqali ma'nosini ochib bermoqda.

Xulosa qilib, fransuz va o'zbek tilidagi san'at terminlari tarjimasida o'zaro ekvivalentlik hosil qilish, yoki ayrim terminlar nomining fransuz tilida aynan muqobili bo'lmaganligi sabab, o'zbek tilidagi atamalarning tarjimasini o'z milliy til xususiyatini saqlagan holda o'girilishini aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", T., 2016. 587-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Toshkent, 2008. – B.74.
3. Hojiyev A. O'zbek tilida so'zning morfologik tarkibi masalasi. O'TA, 1988, № I, –B. 29-33.
4. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. "O'qituvchi", T., 2007. – B. 9-10.
5. Голубева-Монаткина Н.М. Французская диалогическая речь (воспросительное предложение) – М.: Высшая школа, 1985. -125.
6. Русско-узбекский словарь. Том II. Ташкент, 1984. – С. 564.
7. Littré E. Dictionnaire de la langue française. Tom 3. Paris, Hachette, 1876. 350 p.

MUNDARIJA

1.	<i>Abdirasilov S.</i> Talabalarning san’atshunoslik bilimlarini rivojlantirish	3
2.	<i>Abdiyeva G.</i> Usta olim komilov – raqs san’atining sehgari . .	8
3.	<i>Adizova O.I., Berdiyeva Z.</i> La danse classique est la base de la choregraphiques	13
4.	<i>Alimjanova Nodira Abdugaparovna</i> Musiqa san’atida romantizm oqimi va uning o’ziga xos xususiyatlari	17
5.	<i>Абдухаликова Д.</i> Словообразовательные средства языка гениального русского баснописца Крылова	20
6.	<i>Bektamishova N.</i> Umumta’lim maktab to‘garak mashg’ulotlarida o‘quvchilarda qo‘shiq ijrochiligi malakalarini shakllantirish	25
7.	<i>Boboqulov Q.</i> O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchiligida fattohxon mamadaliyevning ijodiy merosi	29
8.	<i>G‘apurov M.</i> O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi: kecha va bugun	34
10.	<i>Gulliyeva Y.</i> Umumta’lim maktabda “musiqa madaniyati” fanini o‘qitishning huquqiy meyoriy asoslari.	38
11.	<i>Hamidova Sh.</i> Hind raqs teatriga bir nigoh	44
12.	<i>Hamroyeva H.</i> O‘zbek milliy raqs san’ati: libos va taqinchoqlar terminologiyasi	48
13.	<i>Haydarova H.</i> Shahar ekotizimidagi madaniy muammolar . .	56
14.	<i>Hojiyeva G.</i> San’at, xususan, musiqa oid terminlarning leksik-semantik hamda milliy-madaniy tahlili (fransuz va o‘zbek tillari misolida)	59
15.	<i>Hojiyeva G, Nosirova Sh.</i> San’at va musiqa terminlari tarjimasida milliy o‘ziga xoslik va lingvistik tahlil (o‘zbek va fransuz tili materiallari misolida)	68